

Ilmiy amaliy jurnal

№ 4 (6)
2026

# YANGI O'ZBEKISTON IQTISODIYOTI

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI**
**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

# YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

# 4

**ISBN 978-9943-5256-3-4**

**Toshkent – 2026**

## MUNDARIJA

**Юлдашев Ш.Г.** Конвергенция и поляризация развитых и развивающихся стран в эпоху развития искусственного интеллекта........ **8**
**Mamatov B.S.** Foreign investment is an important factor of economic growth........ **15**
**Raximova K.N.** Raqamli iqtisodiyot sharoitida telekommunikatsiya kompaniyasining rivojlanish tendensiyasi........ **22**
**Karimov Sh.X.** Turizmni barqaror rivojlantirishda hududiy boshqaruv omillarining ahamiyati........ **26**
**Raximov D.Sh.** To‘qimachilik sanoatida diversifikatsiya darajasi va iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili........ **30**
**Rashidova K.** Asalarichilik mahsulotlari bozorida marketing faoliyati samaradorligini oshirish........ **32**
**Хакимов Д.Р.** Процессы, возможности и ограничения экономической интеграции между Республикой Узбекистан и Китайской Народной Республикой........ **37**
**Olimjanova Sh.O., Eshonqulov I.N.** O‘zbekistonda agrar munosabatlarni takomillashtirishda resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish masalalari........ **42**
**Valikulov Sh.Z.** O‘zbekistonda neft-gaz sanoatiga investitsiyalarni jalb qilishning institutsional muammolari va yechimlari........ **48**
**Ganieva L.S.** Bojxona xizmatlari samaradorligini oshirishning nazariy asoslari........ **52**
**Axrorova N.U.** Turizm xizmatlaridan tajriba iqtisodiyotiga o‘tish: evolyutsion tahlil........ **56**
**Kamilova A.N.** Sanoat ishlab chiqarish korxonasida mehnatni normalashtirish menejmentini tashkil etish va takomillashtirish yo‘llari…........ **61**
**Umurzakova Z.S.** Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni takomillashtirish chora-tadbirlari........ **66**
**Abdiyeva D.K.** Priority directions for improving the national logistics policy in Uzbekistan........ **69**
**Xalimova N.J.** Kreativ turizm: nazariy asoslar va ta’riflar qiyosiy tahlili........ **74**
**Maxramova N.Y.** Strategik menejmentda qadriyatlar zanjiri: raqobatbardoshlikni oshirishning konseptual asoslari........ **78**
**Zaxirova G., Shavkatova N.O‘.** O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish masalalari........ **82**
**Maxmudov H., Muxtarova G., Maxmudov H.** Ekologik muommolar va ularning mamlakat iqtisodiyotga ta’siri........ **86**
**Umurzakova M.N., Gulahmadov Sh.A.** Davlat ichki va tashqi qarzlarining ijobiy va salbiy jihatlari tahlili. **89**
**Xasanov I.M.** O‘zbekistonda mulkchilik munosabatlarining transformatsiyasi: tadbirkorlikni rivojlantirish omili sifatida…........ **94**
**Abdullayev M.G‘.** Personalni boshqarish tizimining ilmiy-nazariy asoslari va uning korxona samaradorligiga ta’siri........ **101**
**Адилов Б.Б., Абдуллаева М.К.** Ўзбекистонда саноат корхоналарини ривожлантириш, тенденциялари........ **105**
**Абдуғаниев Ё.Ж.** Яшил иқтисодиёт - барқарор ривожланиш мақсадларининг янги парадигмаси сифатида........ **112**
**Xusanboyeva T.M.** Talabalarning iqtisodiy tafakkurini shakllantirishda to‘garaklarning o‘rni va ahamiyati. **116**
**Xashimova S.N.** O‘zbekiston milliy yashil taksonomiyasi mohiyati va ahamiyati........ **120**
**Mitillayev I.T.** Tijorat banklarida kredit risklarini baholashda zamonaviy scoring modellari va ularning samaradorligini oshirish yo‘llari........ **124**
**Бобоқулова М.Ғ.** Инвестиция муҳити ва Ўзбекистондаги инвестиция жараёнларининг динамикаси. **127**
**Bekberganova M.R.** “O‘zbekistonda sug‘urta kompaniyalari tushumlarining ekonometrik tahlili”........ **134**
**Рахимова М.Ш.** Модернизация системы социальной защиты........ **138**
**Oqboyev A.R.** Tadbirkorlik subyektlari eksport salohiyatini xalqaro standartlar asosida oshirish yo‘llari.... **142**
**Djumanova R.F.** Aholi turmush sifatini baholashning metodologik yondoshuvlari........ **147**
**Mamatov B.S., Umurzakova M.N.** Davlat tibbiy sug‘urta tizimida bepul xizmatlar, reimbursasiya va foydalanish shartlari........ **154**
**Ешимбетов У.Х.** Қишлоқ хўжалигини худудий ташкил этиш ва ихтисослаштиришнинг илмий асослари........ **158**
**Xodjaeva F.K.** Sanoat ishlab chiqarishini tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish..... **167**
**Yusupova M.** Hududlarda ayollar va yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishda institutsional qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish........ **171**
**Abduxalilov B.Z.** O‘zbekistonda IT provayderlar xizmatlari raqobatbardoshligini oshirish: huquqiy va institutsional asoslar........ **175**
**Abdisamatov A.A.** Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning nazariy asoslari........ **178**

**Abdusalomov I.J.** Korxonalarda chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va uning moliyaviy natijalarga ta’siri........ 182
**Amirov L.F., Sokhibjonova S.S.** Directions for increasing agricultural product exports in the context of a green economy........ 185
**Boltaxo‘jayeva I.O‘.** Ways to improve the enterprise management system based on modern management models........ 191
**Dehqonov U.M., Sativaldiyeva G.** Korxonalarda bo‘nak to‘lovlari hisobining moliyaviy hisobotga ta’siri va ularni optimallashtirish bo‘yicha tahliliy yondashuvlar........ 195
**Isoqova M.A.** O‘zbekistonda yashil energiyadan foydalangan holda kichik biznesni rivojlantirishning institutsional va moliyaviy mexanizmlari........ 199
**Mamadaliyev B., Teshaboyev J.** Korxonalarda mehnatga haq to‘lash hisobini avtomatlashtirish va audit samaradorligini oshirish yo‘llari........ 202
**Poziljonov M., Teshaboyev X.** Davlat muassasalarida asosiy vositalarning hisobini takomillashtirish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish........ 206
**Rustamova F.A.** Qishloq hududlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlarning roli........ 209
**Tursunboyev Q.O.** Transport xizmatlari ko‘rsatish sohasida kichik tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning xorijiy tajribalari........ 213
**Umarov T.S.** Hududlarda qurilish korxonalarini faoliyatini samarali tashkil etishni ekonometrik modellashtirish va prognozlash........ 216
**Xo‘jaliyev A.O., Avilov N.** Moliyaviy natijalar hisobi va auditida raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi........ 220
**Xomidov T.T., Arziboyeva R.S.** Bank aktivlarining tarkibi va ularni boshqarish omillari........ 223
**Xusainov M.** Sanoat korxonalarida mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish tizimini takomillashtirishning metodologik asoslari va audit mexanizmlarini rivojlantirish........ 227
**Begaliyeva M.A., Egamshukurova N.R.** Jahon savdo tizimi va milliy iqtisodiyot uchun uning ahamiyati.. 231
**Gulimboyev S.I.** Korxonalarda moliyaviy resurslar taqsimotining zamonaviy usullari........ 235
**Ibodov J.Q.** Moliyaviy tizimning xizmatlar sohalari va bo‘g‘inlari........ 239
**Jumabayeva K.B.** Xalqaro pensiya tizimi modellari va ularning mintaqaviy tamoyillari........ 243
**Khusanova Z.R., Yo‘ldasheva Z.U.** Global trends in the development of international tourism services..... 249
**Sadullayev M.D.** Sanoat korxanalari innovatsion faoliyatini boshqarish........ 252
**Tilabov N.T.** Davlat qarz siyosatini samarali boshqarish strategiyasini takomillashtirish........ 256
**Toshtemirov Y.N.** O‘zbekistonda logistik faoliyatni rivojlantirishning hozirgi darajasi........ 264
**Toshtemirova Z.M.** Mahalla institutining iqtisodiy integratsiya jarayonlaridagi strategik ahamiyati........ 268
**Uralov E.O.** Surxondaryo viloyati xududida sanoatni shakilanishi va rivojlanishi........ 273
**Xursanova F.Sh.** Budjetlararo munosabatlarning iqtisodiy mazmuni........ 278
**Yuldasheva G.A.** Investitsion qarorlarni kabul qilishda moliyaviy tahlilning ahamiyati va roli…........ 282
**Абдуллаева Р.** Тадбиркорликнинг замонавий кўринишлари........ 287
**Юлдашев А.** Фарғона вилояти маҳаллаларида инвестиция фаоллигини оширишнинг институционал асослари........ 292
**Abdumalikova Z., Razakova B.S.** O‘zbekiston sug‘urta bozorini moliyaviy texnologiyalar (insurtech) asosida rivojlantirish: imkoniyatlar va yo‘nalishlar........ 294
**Azimov B.F.** Milliy innovatsion tizimni boshqarishda tashkiliy-institutsional va moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlarning roli........ 300
**Begaliyeva M.A.** Raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta’lim tizimida sifat menejmentini samarali joriy etishning ahamiyati........ 304
**Dawletmuratov A.M.** Xizmatlar bozorini rivojlantirish orqali bandlikni oshirish va daromadlarni ko‘paytirish mexanizmlari........ 308
**Karimova L.S., Jabborov A.A.** O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyot: holati, muammolar va rivojlanish istiqbollari........ 313
**Maxmudov F.U.** Oliy ta’lim muassasasalarida moslashuvchan marketing strategiyalarini ishlab chiqish mexanizmlari........ 319
**Navruz-zoda L.B.** Kichik biznes subyektlarining kadrlar salohiyati va bilim infratuzilmasiga bo‘lgan talablari: Buxoro viloyati misolida........ 323
**Nishonboyev D.E., Abdumalikov S.T.** Chorvachilik tarmog‘ini innovatsion boshqaruv asosida rivojlantirish istiqbollari........ 327

**Nurmirzayeva N.R.** Valyuta kursi o‘zgarishining eksport-importga ta’siri: O‘zbekiston misolida amaliy baholash........ **331**
**Rahimov A.M.** Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda qayta ishlash sanoatini rivojlantirishning samarali mexanizmlarini takomillashtrish........ **335**
**Ibragimova G.S.** Ta’lim sifatini baholashning xalqaro tajribasi va uni joriy etish........ **339**
**Ravshanova M.M.** Hududiy iqtisodiy salohiyatni baholashda zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish va ularning elektron tijorat tizimidagi o‘rni........ **343**
**Ro‘ziboyeva M.** O‘zbekistonda ishchi kuchi migratsiyasi va iqtisodiy o‘sish darajasining o‘zgarish dinamikasi........ **347**
**Saidova F.K., O‘rozov Sh.** Korporativ ijtimoiy mas’uliyat (CSR) va yashil iqtisodiyot: logistika sektorida boshqaruv strategiyalari........ **350**
**Sultonov S.N.** Hududlarda klasterlarini investitsion - innovatsion rivojlantirish istiqbollari (Qashqadaryo viloyati misolida)........ **354**
**Sultonova D.U.** Korxona iqtisodiyotida resurslarni boshqarishning raqamli-integratsiyalashgan modelini takomillashtirish........ **358**
**To‘raxojayev H.H., Hoshimov P.Z.** Islomiy banklarning ishlash tamoyili va islom moliya tizimining O‘zbekiston iqtisodiyotiga tadbiqi........ **362**
**Tursunova N.U.** Bridging the innovation gap: development-focused entrepreneurship support and international intermediaries........ **368**
**Акрамова Г.А.** «Роль женщин-ученых в совершенствовании механизмов коммерциализации ремесленных услуг Узбекистана в условиях цифровой экономики»........ **374**
**Болтаев Ж.А.** Трансформация банковского сектора в условиях цифровизации мировой экономики.. **379**
**Жунайдуллаев М.А.** Жанубий Кореяда рақамли таълим технологиялари орқали индивидуал спортчиларини тайёрлаш тизимини бошқаришнинг миллий хусусиятлари........ **384**
**Митрушова М.Л.** Интеллектуальный капитал как ключевой фактор инновационного развития предприятия........ **388**
**Муродов О.У.** Барқарор ривожланиш тушунчаси ва унинг иқтисодий, ижтимоий ҳамда экологик мезонлари........ **392**
**Саидова Г., Ибрагимова К., Қурбонов А.** Рақамли трансформация шароитида енгил саноат корхоналари маҳсулотларининг халқаро рақобатбардошлигини ошириш стратегиялари........ **396**
**Sarkarov S.Z.** O‘zbekistonda qurilish sohasining texnologik bisqichlar kesimida rivojlanishi........ **401**
**Minojidinova N.M.** Aksiyadorlik jamiyati korxonalarida xodimlarni samarali boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari........ **406**
**Ruzmetova I.Y.** Xorazm viloyati iqtisodiyotida kichik biznesning o‘rni........ **410**
**Qudratov D., Ismoilov A.** Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tarmoqlar rivojidagi o‘rni........ **414**
**Qodirov H.D.** Soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish orqali davlat byudjeti daromadlarini barqaror oshirish yo‘llari........ **417**
**Kinjayev K.N.** Banklarda kreditlar tasnifini yaxshilash orqali rentabellikni ta’minlash yo‘llari........ **421**
**Макушина А.Ю.** Государственная поддержка экспортного потенциала субъектов малого предпринимательства в Республике Узбекистан........ **424**
**Rejapov X.X., Oxunjonova K.K.** Ixtisoslashtirilgan savdo majmualarini moliyaviy resurslarini shakllantirish va ishlatish yo‘nalishlari – Bek Baraka savdo majmuasi misolida........ **430**
**Махкамова Н.С.** Роль государственно-частных партнерств (ГЧП) в продвижении устойчивого развития ........ **434**
**Avilov N., Muhammadova G.** Korxonalarda materiallar harakatining auditi va iqtisodiy tahlili........ **441**
**Abdullayeva R.G., Raxmonova I.S**. O‘zbekiston qishloq hududlarida bandlikni ta’minlash holati va rivojlanish tendensiyalari........ **444**
**Yusupova M.B.** Ustama ishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlashning ABC usuli........ **447**
**Toshpo‘latov M.A.** Ta’lim loyihalarida moliyaviy mablag‘lardan samarali foydalanishning xususiyatlari... **452**
**Hamidova Sh., Ahmadaliyeva H.** Kapital qo‘yilmalarning samaradorlik tahlili........ **458**
**Хамракулов С.М.** Собственный капитал в функционировании экономических субъкетов Республики Узбекистан........ **461**
**Zayavitdinova N.M.** Raqamli platformalar asosida xizmat ko‘rsatish korxonalarida boshqaruv samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari........ **465**
**Turg‘unov T.S.** O‘zbekistonda aholi turmush darajasini statistik taxlil qilishning ahamiyati........ **469**
**Ботирова З.Қ.** Рақамли иқтисодиёт шароитида даромадларни бошқаришнинг хусусиятлари.... **475**
**Бегимова Н.К.** Меҳнат бозорида гендер тафовутларининг келиб чиқиш сабаблари........ **481**

**UDK 37.014.6(100)**

**TA’LIM SIFATINI BAHOLASHNING XALQARO TAJRIBASI VA UNI JORIY ETISH**

**МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ОЦЕНКИ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ И ЕГО ВНЕДРЕНИЕ**

**INTERNATIONAL EXPERIENCE IN ASSESSING THE QUALITY OF EDUCATION AND ITS IMPLEMENTATION**

**Ibragimova Gulnozaxon Sayidmurodovna**
Andijon davlat texnika instituti “Iqtisodiyot” kafedrasi katta o‘qituvchisi

**Annotatsiya**

Ushbu maqola umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ta’lim sifatini baholashning xalqaro tajribasini o‘rganishga bag‘ishlangan. Shuningdek, maqolada xalqaro tajribani O‘zbekiston maktablarida joriy etish imkoniyatlari, zamonaviy baholash metodlarini integratsiya qilish yo‘llari va ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan tavsiyalar keltirilgan. Tadqiqot natijalari ta’lim boshqaruvi va o‘quv jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladigan strategik yondashuvlarni ishlab chiqishda amaliy ahamiyatga ega.

**Kalit so‘zlar**: Ta’lim sifati, baholash tizimi, xalqaro tajriba, PISA, TIMSS, ta’lim boshqaruvi, innovatsion metodlar.

Данная статья посвящена изучению международного опыта оценки качества образования в общеобразовательных школах. Также в статье рассматриваются возможности внедрения международного опыта в школах Узбекистана, пути интеграции современных методов оценивания и приводятся рекомендации, направленные на повышение качества образования. Результаты исследования имеют практическое значение для разработки стратегических подходов, способствующих совершенствованию управления образованием и учебного процесса.

**Ключевыеслова:** Качество образования, система оценивания, международный опыт, PISA, TIMSS, управление образованием, инновационные методы.

This article is devoted to the study of international experience in assessing the quality of education in general secondary schools. It also examines the possibilities of implementing international practices in schools of Uzbekistan, ways of integrating modern assessment methods, and provides recommendations aimed at improving the quality of education. The research findings have practical significance for developing strategic approaches that contribute to the improvement of education management and the teaching-learning process.

**Keywords:** Education quality, assessment system, international experience, PISA, TIMSS, education management, innovative methods.

Jahonda ta’limning sifatiga yo‘naltirilgan shakllarini ijtimoiy buyurtma va istiqbolli mehnat bozori talablari asosida diversifikatsiyalash, modernizatsiyalashgan o‘qitish modellarini fan va ishlab chiqarish bilan uyg‘unlashtirish, ta’lim sifatini boshqarish nazariyasi va metodologiyasining ilg‘or g‘oyalarini maktab amaliyotiga maqsadli va manzilli tatbiq etishning uzviylik, tizimlilik tamoyillariga asoslangan qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu jarayonda diagnostik monitoringning adolatlilik, o‘lchamlilik, natijadorlik tamoyillari asosida o‘quvchilarda tayanch va fanlarga oid kompetensiyalarni rivojlantirishning individuallashtirilgan o‘qitish texnologiyalarini ishlab chiqish, PISA, TIMSS, PIRLSS xalqaro baholash dasturlari talablari asosida baholash tizimini shakllantirish yuzasidan tadqiqotlar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Ushbu maqsadlarga erishish ta’lim sifati tizimining asosiy maqsadlariga samarali erishish imkonini beradigan turli foydalanuvchilar uchun hisoblagichlar tizimini shakllantirish; ta’lim muassasalari o‘quvchilarining yakuniy attestatsiyadan o‘tkazish va ta’limning keyingi bosqichiga o‘qishga kirish uchun tanlashda ularning ta’lim yutuqlari darajasini baholash; ta’limning turli bosqichlarida ta’lim sifatini monitoring qilish tadqiqotlari doirasida ta’lim sifatini baholash kabi asosiy vazifalarni hal qilishni ta’minlaydi.

| Yil | Olim / Tashkilot | Nazariya / Yondashuv | Qisqacha mazmun |
|---|---|---|---|
| 1980 | W. Edwards Deming | PDCA sikli (Plan-Do-Check-Act) | Ta’lim sifatini uzluksiz yaxshilash sikli orqali boshqarish. |
| 1983 | Joseph Juran | Sifat boshqaruvi nazariyasi | Rejalashtirish, nazorat va yaxshilash asosida ta’lim sifatini oshirish. |
| 1985 | Philip Crosby | “Sifat – talabga moslik” konsepsiyasi | Xatoliklarni kamaytirish va talablarni to’liq bajarish orqali sifatni oshirish. |
| 1990 | David Garvin | Sifat o’lchovlari modeli | Ta’lim sifatini 7 mezon orqali baholash: ish faoliyati, xususiyatlar, ishonchlilik, moslashuvchanlik, xizmat, estetik va qoniqish. |
| 1994 | TQM konsepsiyasi | Total Quality Management | Ta’lim jarayonlarida barcha xodimlar va jarayonlar sifatni oshirishga yo’naltiriladi, |
| 2000 | Richard E. Clark | Ta’lim samaradorligi nazariyasi | Texnologiya va pedagogik jarayonlarni integratsiyalash orqali ta’lim sifatini oshirish. |
| 2002 | Harvey & Green | Ta’lim sifatining besh modeli | Sifatini baholash: istakga muvofiqlik, akademik standart, o’rganish jarayoni, natja, |
| 2005 | Daniel Stufflebeam | CIPP modeli (*Context, Input, Process, Product*) | Ta’lim sifatini tizimli baholash va boshqarish usuli. |
| 2010 | OECD | TALIS va PISA tadqiqotlari | Ta’lim sifatini xalqaro indikatorlar asosida baholash va taqqosslash. |
| 2015 | Michael Fullan | Ta’limda liderlik va o’zgarish nazariyasi | Rahbarlik, pedagogik innovatsiyalar va tizimil o’zgarishlar ta’lim sifatini oshirishda muhim. |
| 2017 | John Hattie | Ko’rsatkichlii o’qitish (*Visible Learning*) | Ta’lim samaradorligini o’qitish natijalarini ilmiy asosda baholash orqali oshirish. |
| 2018 | OECD | PISA 2018 yili | Global ta’lim sifatini baholash, o’quvchi natijalari va teng imkoniyatlar |
| 2020 | UNESCO | Global ta’lim indikatorlari | Barqaror rivojlanish va teng imkoniyatlar nuqtai nazaridan sifatini baholash. |
| 2023 | UNESCO & World Bank | Ta’lim sifatini global boshqarish strategiyalari | Ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, texnologiya va inkluzivlik orqali sifatni baholash. |
| 2025 | Mahalliy tadqiqotlar (*O’zbekiston*) | Ta’lim sifatini boshqarish tizimi | Maktablarda sifatni baholash, monitoring va innovatsion pedagogik, texnologiyalar orqali oshirish. |

**1-rasm. Ta’lim sifatini oshirish nazariyalari va yondashuvlari**

AQSHda “Gaydens” tizimida ta’lim sifatini o‘lchash xizmati faoliyat yuritadi. “Educational Testing Servise” tashkiloti doiralarida mamlakat intellektual salohiyatining holati kuzatib boriladi va hokazolar. Ta’lim sifati muammosi 90-yillarda ta’lim sohasida tavsiya etilgan bir qator yirik xalqaro loyihalarda yetakchi loyiha hisoblanadi. “Forse” kasb tayyorgarligi sifati dasturi maqsadi – Yevropa Ittifoqi doiralarida uzluksiz kasbiy tayyorgarlik tizimini yaratish hisoblanadi. Yoshlarning kasb ta’limi bo‘yicha harakatlanish dasturi hisoblangan “PETRA” ning asosiy maqsadi, yoshlarni hayotga va mehnat faoliyatiga tayyorlashning eng samarali yo‘llarini qidirishdir. Texnologik va kasbiy ta’lim bo‘yicha “UNEBOK” xalqaro loyihaning maqsadi – texnik va kasb ta’limi sohasi masalalari, ilmiy tadqiqotlar sohasida ratsional potensialni mustahkamlash va ma’lumotlar bazasi va axborotlashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar masalalarida tajriba almashishdan iborat.

Hozirgi paytda ta’lim sifatini boshqarish va tizimli yondashuv nuqtai nazaridan andoza sifatida ko‘pincha Singapur ta’lim tizimi olinadi.

Singapur ta’lim tizimi tarixiy, institutsional va madaniy ta’sirlarning o‘ziga xos uyg‘unlashuvi natijasidir. Bu omillar zamonaviy xalqaro tadqiqotlarda tizimning samaradorligini baholash va uni boshqa mamlakatlarga joriy etish qanchalik mumkinligini aniqlash imkonini beradi. Singapur markazlashgan ta’lim tizimini tashkil etdi (garchi boshqa mamlakatlar so‘nggi paytlarda markazsizlashtirishga o‘tayotgan bo‘lsa-da), boshqa davlat institutlari bilan yaxshi integratsiyalashgan tizimni joriy qildi, izchil va yaxshi moliyalashtirilgan jarayonni amaliyotga tatbiq etdi.

Singapur ta’lim tizimi milliy standartlarga asoslangan bo‘lib, bu har bir maktab bitiruvchisi bajarishi kerak bo‘lgan talablarni belgilaydi – o‘quvchining tayyorgarligi yakuniy imtihonlar bilan tekshiriladi. Imtihon natijalari o‘quvchilarning keyingi ta’lim yo‘lini belgilaydi. Ushbu tizim o‘qituvchilarni o‘quv dasturiga ko‘proq e’tibor berishga va bolalarni yakuniy testlarga tayyorlashga undaydi. O‘quv dasturidan so‘ng baho lash va yo‘riqnomalarga rioya qilish birinchi o‘ringa chiqadi.

Maktab Yuksaklik Modeli (SEM) Singapur ta’lim tizimining markaziy ilmiy-amaliy modeli bo‘lib, bu “model maktablarda ta’lim sifatini tizimli ta’minlash (qolav-ertma) va boshqaruv samaradorligini oshirishga qaratilgan bo‘lib, o‘z-o‘zini baholash (self-assessment) hamda tashqi nazoratni o‘z ichiga oladi. Bu model ta’lim sifatini yaxshilash (quality assurance) va maktablarda boshqaruvni modernizatsiya qilish (managerialism) uchun muhim bo‘lib, boshqa mamlakatlarga ham o‘rnak bo‘lmoqda.

SEM ning asosiy xususiyatlari:

Tizimli yondashuv: ta’lim sifatini ta’minlash uchun aniq tizimli jarayonlarni belgilaydi.

Ilmiy-amaliy asos: nazariy bilimlarni amaliy qo‘llashga urg‘u beradi.

O‘z-o‘zini baholash (Self-assessment): maktablarning o‘z-o‘zini tahlil qilishi va kamchiliklarini aniqlashi.

Tashqi nazorat: sifatni ta’minlash uchun tashqi baholash va nazorat mexanizmlari.

Markazlashtirilgan markazdan qochish (Centralized decentralization): markaziy boshqaruvdan qoida olsa-da, maktablarga ma’lum darajada avtonomiya beradi.

Asosiy maqsad: ta’lim sifatini doimiy ravishda oshirish va maktablarni samarali boshqarish orqali talabalarning yuqori natijalarga erishishini ta’minlash.

Bu model (SEM) Singapur va Gonkong kabi mamlakatlarda ta’limni ahamiyat kasb etadi”.[1]

Angliyada maktab samaradorligini “boshqarishning markazlashgan (school effectiveness) tizimidan mavjud ulgurmasliklarni har bir maktabda bartaraf etishga intiluvchi maktabni takomillashtirishning markazlashtirilmagan (school improvement) tizimiga o‘tishi bilan xususiy ta’lim xizmatini taqdim etuvchilar paydo bo‘lib, maktab jamoalariga o‘zlarining rivojlantirish bo‘yicha xizmatlarini taklif qilishmoqda. To‘g‘ri, ko‘pincha ular eng qiyin muammolarni tezda hal qilishga va’da berishadi va bolalar qanday va nimani o‘rganishlarini o‘ylash uchun vaqt qoldirmaydilar. Biroq, jamoaviy kasbiy rivojlanish, albatta, maktabni takomillashtirish dasturining muvaffaqiyati uchun zaruriy shartdir. Bu haqda Maykl Fullan asarlarida ko‘p qayd qilingan”.[2]

Angliya tajribasini tahlil qilib, u butun jamoaning kasbiy rivojlanishi maktabning o‘zida amalga oshirilsa, individual mashg‘ulotlarga qaraganda ancha samaraliroq bo‘lishini ta’kidlaydi.

Angliyada ta’lim sifatini nazorat qilish va baholash davlat va jamoatchilik organlari tomonidan amalga oshiriladi. Bunda sifat kafolatining ichki mexanizmi samaradorligini baholash jarayonlarini tashkil etishdagi javobgarlik oliy ta’lim sifatini ta’minlash Agentligi – Quality Assurance Agency (QAA) zimmasiga yuklatilgan. Quality Assurance Agency (1997) – nodavlat tashkilot hisoblanib, uning asosiy vazifasi sifat ekspertizasini tashkil etish va o‘tkazishdan iborat bo‘lib, tashqi ekspertiza xulosalariga asoslanib davlat tashkiloti baholash natijalari bo‘yicha tegishli qarorlar qabul qiladi .[3]

Ko‘plab tadqiqotchilar “o‘qituvchilar faoliyatini takomillashtirish, o‘zlarining akademik ko‘rsatkichlarini yaxshilashga intilayotgan maktab jamoalarining diqqat markazida bo‘lishi kerakligini ta’kidlaydilar”.[4] Ta’limga doir tushunchalar qatorida “nisbatan yaqinda paydo bo‘lgan va “o‘quv jarayoniga rahbarlik” deb tarjima qilinishi mumkin bo‘lgan “instructional leadership” atamasi maktab rahbarining asosiy funksiyasini — o‘z maktabida o‘qitish sifatiga hissa qo‘shish vazifasini ifodalash uchun kiritilgan. Bir tomondan, ushbu yondashuv o‘quv jarayonini doimiy ravishda kuzatib borish va o‘qituvchilarni o‘z mahoratini oshirishga undashni o‘z ichiga oladi, ikkinchidan, o‘qituvchi uchun ham, o‘quvchi uchun ham vaqt talab qiladigan barcha majburiyat va chalg‘itadigan narsalardan xalos qiladi”[5].

Bunday “vaqt o‘g‘irlash” larga ko‘pincha dars paytida bo‘lib o‘tadigan maktab ta’tillariga tayyorgarlik, direktor yoki bosh o‘qituvchining ko‘rsatmalarini bajarish va hatto, o‘quv dasturida ko‘zda tutilmagan har xil kuzatuv turlari kiradi. Masalan, ma’lumki, 2000-yilda Angliya xalqaro PISA testiga zarur namunani taqdim eta olmadi, chunki ba’zi o‘qituvchilar o‘quv darslarini o‘quvchilar ushbu testni yozishlari uchun taqdim etishdan bosh tortdilar.

Yaponiyada ham ta’lim sifatini “baholash va akkreditatsiyalash jarayonlari boshqa rivojlangan davlatlar kabi o‘zini-o‘zi ko‘rikdan o‘tkazish, tashqi ekspertiza va qaror qabul qilishdan iborat bo‘lib, ta’lim muassasasining faoliyatini umumiy baholash va alohida ta’lim dasturlarini baholash bo‘yicha komissiyalar asosida amalga oshiriladi. Umumiy baholash ta’lim muassasasidagi ta’lim sifatini

boshqarishning zamonaviy metodlari va ichki menejment samaradorligi tahlili asosida shakllantiriladi".

Yaponiyada "o'qituvchilarni rivojlantirish tizimi (INSET) ikki toifaga bo'linadi, biri majburiy, ikkinchisi ixtiyoriy. Ixtiyoriy ravishda qo'shimcha mashg'ulotlar, o'z navbatida, maktab ichidagi va tashqi ta'limga bo'linadi. Majburiy malaka oshirish odatda har bir prefekturada joylashgan o'qituvchilar malakasini oshirish markazlarida amalga oshiriladi"[6].

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ta'lim sifatini baholashning xalqaro tajribasi o'rganilganda, samarali baholash tizimlari o'quvchilar bilim darajasini aniqlash, pedagogik jarayonni takomillashtirish va ta'lim siyosatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. PISA, TIMSS va boshqa xalqaro dasturlar o'quvchilarning akademik yutuqlarini solishtirish imkonini beradi, shu bilan birga o'quv jarayonidagi zaifliklarni aniqlashga yordam beradi.

Shunday qilib, xalqaro tajriba O'zbekiston maktablarida ta'lim sifatini baholash tizimini rivojlantirish va samaradorligini oshirish uchun asosiy yo'l xaritasi sifatida xizmat qilishi mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Fadlia, F. F. (2019). Singapore's school excellence model and hong kong's school-based management. Seuneubok lada: Jurnal Ilmu-Ilmu Sejarah, Sosial, Budaya Dan Pendidikan, 4(1), 46-56. Retrieved from https://ejurnalunsam.id/index.php/jsnbl/article/view/1090
2. Fullan M. (2001) Leading in a culture of change. /San-Francisco:Jossey-Bass.
3. King M.B. and Newman F.M. (2001) Building school capacity through professional development: conceptual and empirical considerations. [Текст] International Journal of Educational Management, 15(2)p87-93
4. Slater, Ch. Ed. (2007) Facing accountability in Education. /Teachers College Press, Columbia University. NY, p. 32
5. Turg'unov S.T.. Ta'lim muassasalarini boshqarishda innovatsion faoliyat. – Uzluksiz ta'lim jurnali. – 2006. – № 4. – 3-6-b.
6. Хмель Т.А. Прагматическая педагогика и ее роль в американском школьном образовании: Дисс. канд. пед. наук. -М., 1970.
7. Ibragimova G.S. Ta'lim sifatini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish. // Муғаллим ҳем узликсиз билимлендириў илмий-методикалық журнал. – N.: 2023. №4/2. - B. 375-378. (13.00.00 №20).
8. Ibragimova.G.S. Ta'lim sifati monitoringi jarayonida xalqaro baxolash dasturlarini keng joriy etishning ahamiyati. // TDPU Ilmiy axborotlari ilmiy-nazariy jurnali. –T.: 2022. №6. — B. 268-278. (13.00.00 №32).